

**TAKRORIY EKin SIFATIDA EKILGAN KUNGABOQAR
URUG'LARINING DALA UNUVCHANLIGI**

Ro'zmanov Abdullo Norboy o'g'li,

tayanch doktoranti

Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti

Annotatsiya. Maqolada Qashqqadaryo viloyatining Qarshi tumani sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlar sharoitida takroriy ekin sifatida ekilgan kungaboqar urug'larining dala unuvchanligi yoritilgan. Qashqqadaryo viloyatining och tusli bo'z tuproqlari sharoitida kungaboqarning "Diyor" va "Jahongir" navlari 90 ming dona/ga hisobida ekilganda urug'larning dala unuvchanligi 89,2-90,6% bo'lib, bu davrda havo harorati va nisbiy namligi muddatlar bo'yicha keskin farq qilmaganligi va agronomik omillar bir xilda o'tkazilganligi sababli urug'larning dala unuvchanligi o'rtasida keskin farq kuzatilmasligi aniqlangan.

Kalit so'zlar: Kungaboqar, tuproq, urug', muddat, nav, Diyor, Jahongir, dala unuvchanligi.

Аннотация. В статье описано полевое плодородие семян подсолнечника, посаженных в качестве повторной культуры в условиях орошаемых бледно-серых почв Каршинского района Кашкадарьинской области. В условиях светло-сероземной почвы Кашкадарьинской области при посадке подсолнечника сортов «Диёр» и «Джахонгир» из расчета 90 000 шт./га полевая всхожесть семян составляет 89,2-90,6%. достоверной разницы между полевой жизнеспособностью семян не было в связи с тем, что они не различались и агрономические факторы оставались одинаковыми.

Ключевые слова: Подсолнечник, почва, семена, период, сорт, Диар, Джахангир, плодородие поля.





Abstract. The article describes the field fertility of sunflower seeds planted as a repeat crop in the conditions of irrigated pale gray soils of the Karshi district of the Kashkadarya region. In the light gray soil conditions of the Kashkadarya region, when planting sunflower varieties “Diyor” and “Jahongir” at the rate of 90,000 pieces/ha, field seed germination is 89,2-90,6%. There was no significant difference between the field viability of seeds due to the fact that they did not differ and the agronomic factors remained the same.

Key words: Sunflower, soil, seeds, period, variety, Diyar, Jahangir, field fertility.

Kirish. Dunyoda o'simlik moyini ishlab chiqarish uchun kungaboqar yetishtirishda zamonaviy agrotexnologiyalarni qo'llash bo'yicha bir qator ustuvor yo'nalishlarda ilmiy ishlar olib borilmoqda. Bu borada, har bir mintaqalarning tuproq-iqlim sharoitlaridan kelib chiqib, kungaboqar yetishtirishda maqbul ekish muddatlari, oziqlantirish me'yorlarini belgilash orqali iqtisodiy jihatdan samarali bo'lgan kungaboqar yetishtirish agrotadbirlarni ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Keyingi yillarda aholi sonini ortib borishi natijasida, o'simlik moyiga bo'lgan talab ham ortib bormoqda. Shu sababli moy uchun kungaboqar o'simligini takroriy ekin sifatida yetishtirishda ekish muddatlari, o'g'it me'yorlarni qo'llash orqali uning hosildorligiga va moydorligiga ta'sirini aniqlashning iqtisodiy jihatdan samarali bo'lgan agrotadbirlarni ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Kungaboqar yetishtirishni barqarorlashtirish va ko'paytirish hamda yuqori sifatli urug'likdan yuqori, barqaror hosil olish muammosini hal etishning ustuvor yo'nalishi bu ekinni yetishtirish texnologiyalari elementlarini o'ziga xos tuproq-iqlim sharoitlariga bog'liq holda yanada takomillashtirishdan iborat [2, 3]. Kungaboqar yetishtirish texnologiyasining asosiy elementlari, xususan, asosiy ishlov berish va o'g'itlardan foydalanishdir [1].

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Respublikamizda turli tuproq-iqlim sharoitlarida moyli ekinlarni yetishtirishda uning hosildorligi o'g'it qo'llash



me'yorlarining ta'siri bo'yicha agrotadbirlari olib borilib muayyan natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qishloq xo'jaligi ekinlari urug'chiligini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi qarorida «tuproq-iqlim sharoitidan kelib chiqib moyli, dukkakli va ozuqa ekinlarining turlari hamda navlari bo'yicha joylashtirish»¹ bo'yicha vazifalar belgilab berilgan. Shu sababli, qishloq xo'jaligida sug'oriladigan maydonlarda takroriy ekin sifatida kungaboqar yetishtirishda uning hosildorligini oshiradigan iqtisodiy jihatdan samarali bo'lgan agrotadbirlarni ishlab chiqish respublikamiz uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot ob'ekti va usullari. Ma'dan o'g'itlar qo'llash orqali kungaboqarning hosildorligini oshirish bo'yicha tadqiqotlar Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot institutining markaziy tajriba maydonida olib borildi. Kungaboqarning «Diyor» va «Jahongir» navlari ekish, yetishtirish va hosildorligini aniqlash umum qabul qilingan uslublar asosida amalga oshirildi [4; 5].

Natijalar. Kuzgi bug'doy o'rim – yig'imdan keyin ang'izdagi somon yig'ishtirib olingandan so'ng takroriy ekin sifatida kungaboqarning «Diyor» va «Jahongir» 90 ming dona/ga hisobida ekilgan maydonda urug'larning dala unuvchanligi aniqlanganda, havo harorati va nisbiy namligi muddatlar bo'yicha keskin farq qilmaganligi va agronomik omillar bir xilda o'tkazilganligi sababli urug'larning dala unuvchanligi o'rtasida keskin farq kuzatilmadi.

1-jadval

Takroriy ekin sifatida ekilgan kungaboqar urug'larining dala unuvchanligi

(Janubiy dehqonchilik ITI tajriba maydoni. 2022-2024y. y)

	Nav	Dala unuvchanligi
--	-----	-------------------

¹ <https://lex.uz/uz/docs/-5840120>

Ma'dan o'g'itlar, kg/ga		Erta muddat (20-25.06.2022-2024 y)	ming dona/g a	%	O'rta muddat (25-30.06.2022-2024 y)	ming dona/g a	%	Kechki muddat (01-10.07.2022-2024 y)	ming dona/g a	%
N ₀ P ₀ K ₀	Diyor		81,228	90, 3		80,88	89, 9		81,129	90, 1
N ₈₀ P ₆₀ K ₆₀			80,287	89, 2		81,237	90, 3		80,914	89, 9
N ₁₀₀ P ₈₀ K ₆₀			80,827	89, 8		81,551	90, 6		81,157	90, 2
N ₁₂₀ P ₁₀₀ K ₆₀			81,412	90, 5		81,369	90, 4		81,109	90, 1
N ₁₄₀ P ₁₂₀ K ₆₀			81,297	90, 3		81,114	90, 1		81,327	90, 4
N ₀ P ₀ K ₀	Jahongir		81,335	90, 4		81,152	90, 2		81,02	90
N ₈₀ P ₆₀ K ₆₀			81,416	90, 5		81,321	90, 4		81,306	90, 3
N ₁₀₀ P ₈₀ K ₆₀			80,504	89, 4		80,939	89, 9		81,124	90, 1
N ₁₂₀ P ₁₀₀ K ₆₀			81,426	90, 5		81,413	90, 5		80,732	89, 7
N ₁₄₀ P ₁₂₀ K ₆₀		81,131	90, 1	81,528	90, 6	81,318	90, 4			

Takroriy ekin sifatida ekilgan kungaboqarning urug'larining dala unuvchanligi erda muddatda «Diyor» navida 89,2-90,5%, «Jahongir» navida esa o'rta hisobda 89,4-90,5% bo'lganligi aniqlandi (1-jadval).

O'rta va kech muddatda urug'larning dala unuvchanligi o'rta hisobda «Diyor» va «Jahongir» navlarida 89,9-90,6% va 89,9-90,4% gacha hamda 89,9-90,5% va 89,7-90,4% gacha bo'lganligi aniqlandi.



Xulosa. Qashqadaryo viloyatining och tusli bo'z tuproqlari sharoitida kungaboqarning «Diyor» va «Jahongir» navlari 90 ming dona/ga hisobida ekilganda urug'larning dala unuvchanligi 89,2-90,6% bo'lib, bu davrda havo harorati va nisbiy namligi muddatlar bo'yicha keskin farq qilmaganligi va agronomik omillar bir xilda o'tkazilganligi sababli urug'larning dala unuvchanligi o'rtasida keskin farq kuzatilmasligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Васильев, Д.С. Подсолнечник. 2-е изд., перераб. и доп. М.: Агропромиздат, 1990. 173 с.4. Смолин И.И. Минеральные удобрения и урожай // Техника и оборудование для села. 2001. № 11. С. 41.
2. Гринько А.В. Эффективный гербицид для защиты подсолнечника // Пути повышения эффективности орошаемого земледелия. 2017. № 1 (65). С. 159 — 164.
3. Найденов А.С., Лучинский С.И., Маковеев А.В. Эффективность разных технологий возделывания подсолнечника // Политематический сетевой электронный научный журнал Кубанского государственного аграрного университета (научный журнал КубГАУ). [Электронный ресурс]. Краснодар. КубГАУ, 2010. № 05 (059). С. 244 — 254.
4. Azizov T., Anorboyev I., To'xtayeva S. Takroriy kungaboqar yetishtirish bo'yicha tavsiyalar. <https://agro.uz/uzsrvice/recomendations/4613>
5. Dala tajribalarni olib borish uslublari. (2007). O'zPITI.
6. Доспехов Б.А. (1985). Методы полевого опыта. Агропромиздат.